

YOSHLAR TARBIYASIDA EKOLOGIK QADRIYATLARNING O'RNI

*Taxirova Saboxon Xursandbek qizi
Urganch Ranch texnologiya universiteti
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada atrof-muhitni asrab-avaylash, unga ehtiyojkorona munosabatda bo'lish, ekologik qadriyatlar va ularning yoshlar tarbiyasiga ta'siri kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekologik qadriyat, atrof-muhit, ekologiya, tabiiy resurslar, barqaror rivojlanish, ekologik madaniyat.

Odam paydo bo'lgan davrdan to hozirga qadar tabiatga ta'sir qilib, uni o'zgartirib yubordi. Keyingi ming yillar davomida inson mehnat faoliyati natijasida, o'zining istiqbolni o'ylamay qilgan xatti harakatlari, tufayli tabiat behad ozor chekdi, ko'p narsalardan abadiy judo bo'ldi. Yer shari yuzasi, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosining keskin o'zgarib ketdi. Ma'lumki, yaqin yaqinlargacha inson tabiatga hokim, uni istagancha o'zgartirishi, o'z irodasiga bo'ysundirishi mumkin, degan noto'g'ri fikr ustunlik qilib, tabiatni iqtisodiyot talabiga moslashtirib o'zgartirish avj olib ketdi. Buni natijasida daryo va ko'llardagi baliqlar, parrandalar, hayvonlar qirilib ketdi, ko'pchiligi qrilish arafasida. O'rmonlar, tuqaylar yildan yilga kamayib bormoqda.

Inson tabiatdan o'ziga kerakli narsalarni olish bilan bir qatorda unga har xil ishlab chiqarish chiqindilarini tashlab, tabiatni zaharlantirmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, har yili atmosferaga 200 million toniadan ziyod karbonat angidrid (is gazi), qariyb 150 million tonia oltingugurt oksidi, 53 million tonna nitrat angidrid, 50 million toniadan ortiqroq har xil uglevodorodlar chiqarilmoqda. Jahon sanoati har yili tabiatga 32 milliard kub metr ifloslangan suv, 70 million tonna zaharli gazlar va 250 million tonna changni tashlamoqda. Oqibatda biosfera o'z o'zini tozalashga ojiz bo'lib qolmoqda. Biosferaga chiqayotgan zaharli gazlar yer yuzini iqlimini o'zgarishiga va global isib ketishga olib keldi. Buni ta'sirini biz bugungi kunda yer yuzida 2010 yil va 2011 yilning birinchi yarmida ro'y bergen tabiy ofatlarda, ya'ni to'fonlar (AQSH, Indoneziya, Yaponiya), zilzilar (Yaponiya, Xitoy), suv toshqinlari (Yevropa, Xitoy) misolida ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda atmosferadagi zaharlangan karbonat angidrid gazining miqdori qariyb 20 foizni tashkil etadi. Buning hammasi inson sog'lig'iga ta'sir etib, rak va boshqa kasalliklar yildan yilga ko'payib ketmoqda. Hozirgi paytda dunyo bo'yicha har yili 500 ming kishi rak bilan kasallangan bo'lsa, uning 60 foizi atrof muhitdagi har xil konseregen moddalarning ko'payishi natijasida kelib chiqqan. Atrof muhitning

radioaktiv va kimyoviy chiqindilar bilan bulg'anishi aholining, chorva mollarining, parrandalarning, daryo va ko'llardagi, suv omborlari va okeanlardagi baliq va boshqa jonivorlarning ko'plab zaharlanishiga sabab bo'lmoqda. Olimlar xavo, suv va yer yuzining zaharlanishi shu tarika davom etadigan bo'lsa sivilizatsiya xalokatga uchrashi mumkin deyishmoqda. Ekologik halokatlar natijasida yer yuzini qizib ketishi natijasijdir.

Bugungi kunda Orol dengizi atrofidagi 35 milliondan ortiq aholi ekologik falokat oqibatlarini boshdan kechirmokda. Markaziy Osiyo davlatlari o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq ikdisodiy qiyinchiliklarga qaramay, Orol dengizini saqlab qolish, mintaqadagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirish yo'lida kuchlarni birlashtirish, bahamjihat, hamkorlikda faoliyat ko'rsatish lozimligini anglab yetdilar. Shu muammolar qatorida Tojikiston xukumatining noto'g'ri siyosati natijasida qurilayotgan Rog'un GESi esa bu fojiani oqibatlarini yanada og'irlashtiradi, chunki bu GESning ishga tushishi Orol dengiziga kelayotgan suvni 11 yil davomida to'xatib qo'yishi mumkin. Bu esa Orol dengizini butulay qurib qolishiga olib keladi, lekin fojea butunlay shu bilan to'xtamaydi, ya'ni nafaqat suv muamosi, balki bu hududda ro'y berishi mumkin bo'lган zilzillar natijasida Markaziy Osiyo hududidagi O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston hatto Tojikistonning o'zi ham og'ir halokatlar qurban bo'lish ehtimoli mavjud.

Islom ta'limoti va uning negizida shakllangan hadislarda ham atrof-muhit muhofazasi masalasiga juda katta ahamiyat berilgan. Unda tabiatga munosabatga nisbatan insonning axloqiy madaniyat shakli sifatida yondashilgan..

Markaziy Osiyo mintaqasiga xos yana bir ekologik muammo paxta yakkaxokimligi bilan bog'likdir. Mintaqamiz tabiiy iklimi paxtachilikni rivojlantirishga moslashgan. Shuning uchun ham, Markaziy Osiyo respublikalarida o'tmishda paxta ekadigan maydonlar ko'lami xaddan tashqari kengaytirib yuborilgan edi. Ularni suv bilan ta'minlash maqsadida Amudaryo va Sirdaryo o'zanida ko'plab suv omborlari qurilgan edi. Natijada Daryolarning suvi Orol dengiziga yetib kelmay, yo'l yo'lakay sun'iy ko'llarda saqlanib qolmoqda. Bunday hollar ikki daryordan suv ichadigan besh mamlakatning hammasida ham yuz bermoqda. Mintaqamizda ekologik vaziyatning murkkablashib borayotganligi xaqida so'z yuritganda yana shuni ham esdan chikarmaslik kerakki, paxtani yetishtirish uchun bir necha yillar mobaynida ko'p miqdorda ishlatilgan kimyoviy moddalar tufayli yer, suv, havo zaharlandi. Oqibatda necha minglab kishilar oshqozon ichak sariq kasalliklariga mutbalo bo'lishdi.

Orol bo'yida sodir bo'layotgan ekologik fojiani o'z ko'lami va uzoq davom etadigan oqibatlariga ko'ra jahondagi eng katta ekologik halokatlar bilan qiyoslash mumkin. Qurbonlar, bir umr nogiron bo'lib qoladigan kishilar bor. Zaharlangan, yaroqsiz holga keltirilgan zamin, xuvillab qolgan, vayron bo'layotgan qishloqlar bor. Eng xavflisi shuki, bemorlar orasida bolalar ko'pchilikni tashkil etadi. Nogironlar

muntazam ko‘payib bormoqda. Koraqalpog‘istonning bir qancha tumanlarida vrachlar onalarga go‘daklarni emizmaslikni tavsiya etadilar, chunki ona suti zaharlangan.

Mustaqillik tufayli bu masalani ham xal qilishda ma’lum darajada ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Paxta zararkundalariga qarshi zaharli kimyoviy moddalarni ishlatish o‘rniga biologik usullardan foydalanilmokda. Paxtazorlarni kamaytirish hisobiga doimiy mahsulotlarini ishlab chiqish yo‘lga qo‘yilmoqda. Bularning hammasi o‘z navbatida ekologik vaziyatni yaxshilashga zamin yaratmokda.

Bugun insoniyat shundan darajaga erishdiki, endi tabiatdan foydalanibgina qolmasdan uni ximoya qilish zarurati tug‘ildi. Bugun insonlargina tabiatga bog‘lik emas, balki tabiat ham insonlarga bog‘lik bo‘lib qoldi, chunki bir mamlakatda ro‘y berayotgan ekologik inqiroz boshqa joylarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmokda.

Tabiat — muqaddas dargoh insoniyatning beshigidir, umuimiyligini uyimizdir, shunday ekan, uni ko‘z qorachig‘idek saqlash, atrof muhitning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik bashariyatning ishidir.

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining atrof muxitni muxofaza qilish muammolariga oid mintaqaviy va jahon ilmiy amaliy anjumanlarining o‘tkazilishi tabiatni muxofaza qilish ishlariga jamoatchilikning keng jalb etilishi bunga misol bo‘la oladi.

Mintaqamizda tabiatni muhofaza qilish va ekologik inqirozni hal qilish uchun barcha mamlakatlar hamkorlik bilan ish tutishlari maqsadga muvofikdir. Bu hamkorlik to‘la teng huquq, har bir mamlakatning suverenitetini hurmat qilish, olingan majburiyatlarni, xalqaro huquq normalarini vijdonan bajarish asnosida bo‘lishi lozim. Biz yashab turgan zaminning qat’iy talabi mana shulardan iborat.

Adabiyotlar:

1. Қуръони Карим маъноларининг таржимаси. Т. “Тошкент ислом университети” нашриёти. 2001. 132-бет.
2. Ахлоқ-одобга оид хадис намуналари. Т.: Фан, 1990. 110-бет.
3. Чориев С. Экологик сиёсат ва шахс баркамоллиги.//Экологический вестник. - 1999. - № 1-2. - С. 9.
4. Абдуллаев З. Экологические отношения и экологическое сознание. - С.17-41.